



XI. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI

Birlamchi ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning 1-iyun holatiga viloyatda jami faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalarining moliyaviy natijalariga asosan ularning foyda solig'ini to'lagunga qadar foydasi (zarari) 266 490,9 mln. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10 822,7 mln. so'mga ko'paygan.

Umumiy hajmga nisbatan olingan foyda solig'ini to'lagunga qadar foydaning asosiy qismi, yani 48,8 % Namangan shahriga (130 107,8 mln. so'm), 24,4 % Chust tumaniga (65 062,2 mln. so'm), 10,4 % To'raqo'rg'on tumaniga (27 830,3 mln. so'm), 5,4 % Kosonsoy tumaniga (14 518,9 mln. so'm) to'g'ri keldi.

Foyda solig'ini to'lagunga qadar foydaning sohalar kesimida tahlil qilinganda asosan, ishlab chiqariladigan sanoatda 159 103,8 mln. so'mni, ulgurji va chakana savdo 92 576,7 mln. so'mni va boshqa sohalar tashkil etdi.

2023-yilning 1-iyun holatiga viloyat bo'yicha 14 ta korxona faoliyatini zarar bilan yakunladi. Shu jumladan, 8 ta korxona Namangan shahrida, 1 ta korxona Pop tumanida, 3 ta korxona To'raqo'rg'on tumanida, 1 ta korxona Uchqo'rg'on tumanida, 1 ta korxona Chust tumanida, joylashgan. Zarar ko'rib faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosan savdo va sanoat sohasiga tegishli bo'lib, ushbu sohalar tomonidan jami 16 370,1 mln. so'm zarar ko'rgan.

2023-yilning 1-iyun holatiga korxona va tashkilotlar bo'yicha debitor qarzdorlik 2 988 056,5 mln. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 142 349,6 mln. so'mga kamaygan, yil boshiga nisbatan esa 1 366 838,8 mln. so'mga kamaygan, muddati o'tgan debitor qarzdorlik esa, 20 848,1 mln. so'm bo'lib, jami debitorlikning 0,7 % ni tashkil etdi va yil boshiga nisbatan 5412,8 mln. so'mga kamaygan.

2023-yilning 1-iyun holatiga kreditor qarzdorlik 3 012 718,6 mln. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 708 968,2 mln. so'mga kamaygan va yil boshiga nisbatan 632 761,7 mln. so'mga kamaygan. Muddati o'tgan kreditor qarzdorlik esa, 229,3 mln. so'mni tashkil etib, umumiy kreditor qarzdorlikning 0,007 % ni tashkil etdi va yil boshiga nisbatan 643,1 mln. so'mga kamaygan.



Namangan viloyatining 2023- yil yanvar-iyun oylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati

Namangan viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalarining debitorlik qarzdorligi (mln.so‘m)

	2022- yil 1-iyun holatiga		2023- yil 1- iyun holatiga	
	jamি debitorlik	muddati o‘tgani	jamি debitorlik	muddati o‘tgani
Viloyat bo‘yicha jamি	4 130 406,1	327 503,1	2 988 056,5	20 848,1
Namangan sh.	1 338 194,2	20 318,7	1 584 476,6	19 435,4
Mingbulоq	168 223,3	519,8	54 881,2	92,2
Kosonsoy	42 759,8	0,0	84 153,1	0,0
Namangan t.	55 177,6	0,0	36 058,5	0,0
Norin	19 012,6	0,0	15 873,7	0,0
Pop	332 023,7	0,0	142 298,2	0,0
To‘raqo‘rg‘on	1 393 495,7	304 706,4	172 241,6	102,3
Uychi	239 266,5	0,0	222 251,9	0,0
Uchqo‘rg‘on	231 461,1	0,0	219 148,7	0,0
Chortоq	963,5	0,0	773,3	0,0
Chust	309 828,2	1 958,3	455 899,8	1 218,1
Yangiqo‘rg‘on	0,0	0,0	0,0	0,0

**Namangan viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalarining
kreditorlik qarzdorligi (mln.so ‘m)**

	2022- yil 1-iyun holatiga		2023- yil 1- iyun holatiga	
	jamii debitorlik	muddati o‘tgani	jamii debitorlik	muddati o‘tgani
Viloyat bo‘yicha jamii	3 721 686,8	93,7	3 012 718,6	229,3
Namangan sh.	1 862 127,9	0,0	1 696 332,3	0,0
Mingbuloq	357 266,3	93,7	43 994,0	64,6
Kosonsoy	67 883,1	0,0	67 931,1	0,0
Namangan t.	87 133,1	0,0	54 466,1	0,0
Norin	28 521,3	0,0	30 293,7	0,0
Pop	240 073,5	0,0	160 552,8	0,0
To‘raqo‘rg‘on	258 641,6	0,0	287 049,8	164,7
Uychi	172 462,6	0,0	147 123,2	0,0
Uchqo‘rg‘on	229 239,1	0,0	144 011,6	0,0
Chortoq	771,5	0,0	1 047,3	0,0
Chust	417 566,8	0,0	379 916,6	0,0
Yangiqo‘rg‘on	0,0	0,0	0,0	0,0



Namangan viloyatining 2023- yil yanvar-iyun oylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati

2023- yil 1- iyun holatiga korxona va tashkilotlar faoliyatining moliyaviy natijalari

	Foyda, zarar (+,-) mln. so‘m	O‘tgan yilga nisbatan % da
Viloyat bo‘yicha jami	266 490,9	104,2
Namangan sh.	130107,8	104,6
Mingbuloq	740,3	310,9
Kosonsoy	14518,9	116,5
Namangan	957,4	87,3
Norin	3957,3	107,9
Pop	3803,6	43,1
To‘raqo‘rg‘on	27830,3	110,3
Uychi	10722,2	114,5
Uchqo‘rg‘on	8495	97,6
Chortoq	295,9	236,8
Chust	65062,2	105,7
Yangiqo‘rg‘on	-	-

**2023- yil 1-iyun holatiga zarar bilan faoliyat
ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar**

	Zarar bilan ishlayotgan korxonalar soni	Umumiy korxonalar soniga nisbatan, % da	Zarar miqdori, mln. so‘m
Viloyat bo‘yicha jami	14	1,0	16 370,1
Namangan sh.	8	11,1	13 178,9
Mingbuloq	-	-	-
Kosonsoy	-	-	-
Namangan	-	-	-
Norin	-	-	-
Pop	1	14,3	2 838,4
To‘raqo‘rg‘on	3	23,1	235,7
Uychi	-	-	-
Uchqo‘rg‘on	1	20,0	106,8
Chortoq	-	-	-
Chust	1	7,7	10,3
Yangiqo‘rg‘on	-	-	-



Namangan viloyatining 2023- yil yanvar-iyun oylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati

**Namangan viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalarning
ish haqqidan qarzdorligi (mln.so ‘m)**

	2022- yil 1-iyun holatiga		2023- yil 1-iyun holatiga	
	jamি ish haqqidan qarzdorlik	muddati o‘tgani	jamি ish haqqidan qarzdorlik	muddati o‘tgani

Viloyat bo‘yicha jamি	67 345,5	0,0	67 837,5	0,0
Namangan sh.	44736,4	0,0	38769,9	0,0
Mingbulоq	841,9	0,0	857,0	0,0
Kosonsoy	1420,1	0,0	3481,0	0,0
Namangan t.	798,4	0,0	955,2	0,0
Norin	1778,8	0,0	287,1	0,0
Pop	712,6	0,0	2048,7	0,0
To‘raqo‘rg‘on	9491,3	0,0	10652,3	0,0
Uychi	1696,2	0,0	2513,0	0,0
Uchqo‘rg‘on	2128,1	0,0	2155,6	0,0
Chortоq	13,1	0,0	58,8	0,0
Chust	3724,5	0,0	6058,9	0,0
Yangiqo‘rg‘on	0,0	0,0	0,0	0,0

XII. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

(Adliya boshqarmasi huzuridagi Davlat xizmatlari markazlari ma'lumotlar bazasi shakllantirildi)

Korxona va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning 1-iyul holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 40 154 taga etdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlar soni 27 506 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 68,5 % ni tashkil qildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning asosiy ulushi Namangan shahri (32,7 %), Chust (8,0 %), Uychi (6,5 %) va Uchqo'rg'on (6,5 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.


Ro'yxatga olingan va faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

(2023-yilning 1-iyul holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat jami	40 154	100,0	27 506	100,0
Namangan sh.	13 132	32,7	8 430	30,7
Mingbuloq	1 846	4,6	1 333	4,8
Kosonsoy	2 480	6,2	1 689	6,1
Namangan t.	2 527	6,3	1 658	6,0
Norin	2 050	5,1	1 403	5,1
Pop	2 551	6,3	2 082	7,6
To'raqo'rg'on	2 527	6,3	1 870	6,8
Uychi	2 601	6,5	1 674	6,1
Uchqo'rg'on	2 601	6,5	1 916	7,0
Chortoq	2 488	6,2	1 677	6,1
Chust	3 213	8,0	2 317	8,4
Yangiqo'rg'on	2 138	5,3	1 457	5,3

	Ro'yxatga olingan	Faoliyat ko'rsatayotgan
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat jami	40 154	100,0
Namangan sh.	13 132	32,7
Mingbuloq	1 846	4,6
Kosonsoy	2 480	6,2
Namangan t.	2 527	6,3
Norin	2 050	5,1
Pop	2 551	6,3
To'raqo'rg'on	2 527	6,3
Uychi	2 601	6,5
Uchqo'rg'on	2 601	6,5
Chortoq	2 488	6,2
Chust	3 213	8,0
Yangiqo'rg'on	2 138	5,3

Ro‘yxatdan o‘tgan sub’yektlarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da
(2023- yilning 1- iyul holatiga)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning (32,4 %)), sanoat (20,8 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (8,5 %) hamda qurilish (6,6 %) sohalariga to‘g‘ri keladi.

Ro‘yxatdan o‘tgan tijorat korxonalari iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha
(2023-yilning 1-iyul holatiga)

	Ro‘yxatga olingan		Faoliyat ko‘rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	Birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Jami	35 538	100,0	23 216	100,0

shu jumladan:

qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	3 385	9,5	2 005	8,6
sanoat	8 353	23,5	5 076	21,9
qurilish	2 636	7,4	1 622	7,0
savdo	12 999	36,6	8 996	38,8
tashish va saqlash	1 367	3,9	966	4,2
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 887	5,3	1 259	5,4
axborot va aloqa	530	1,5	336	1,4
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	717	2,0	580	2,5
boshqa turlari	3 664	10,3	2 376	10,2


Ro‘yxatdan o‘tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-xuquqiy shakli bo‘yicha)


2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)



Mas'uliyati cheklangan jamiyat



Xususiy korxona




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb, bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis xujjalari bilan belgilab qo‘yilgan miqdorlardagi ulushlarga bo‘lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamoat faoliyati bilan bo‘lib zarar uchun o‘zlar qo‘shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar.

Jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismining doirasida solidar javobgar bo‘ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek “mas'uliyati cheklangan” degan so‘zlarni o‘z ichiga olishi kerak.

Oilaviy korxonalar soni
(2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)




Ro‘yxatdan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra 1 453 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 113 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko‘rish mumkin.

Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 997 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 274 taga yoki 88,8 foizni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 93 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 90 taga yoki 50,8 foizni tashkil etganligini ko‘rish mumkin.

**Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarining
xududlar kesimida soni**
(2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)




**Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni
(2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)**


Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra 26 951 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 379 taga yoki 114,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 17 723 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 4 744 taga yoki 78,9 % ni tashkil qilganligini ko'rish mumkin.

2023- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 254 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 297 taga yoki 88,4 % ni tashkil qilganligini ko'rish mumkin.




**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan
jamiyatlarining hududlar kesimidagi soni
(2023 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)**




2023 yil 1 iyul holatiga ko'ra mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Namangan shahri 5 861 ta (jamidagi ulushi 33,1 %), Pop 1 380 ta (7,8 %), Uchqo'rg'on 1 250 ta va Chortoq 1 233 (7,0 % dan), Uychi 1 136 ta (6,4 %), Kosonsoy 1 133 ta (6,4 %), Chust 1 094 ta (6,2 %), To'raqo'rg'on 1 028 ta (5,8 %), Namangan 1 006 ta (5,7 %) xissasiga to'g'ri keladi.

Aksincha eng kam Mingbuloq 736 ta (4,1 %), Yangiqo'rg'on 928 ta (5,2 %) tumanlari xissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarini jamiga nisbatan ulushi, foizda



Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxona va tashkilotlari soni bo'yicha ma'lumotlar, birlikda



Ishlab chiqaradigan sanoat

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va xavoni konditsiyalash

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Namangan viloyatining 2023- yil yanvar-iyun oylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati

Ro‘yxatga olingan faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi


(2023- yilning 1- iyul holatiga)

	Ro‘yxatga olingan		Faoliyat ko‘rsatayotgan	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % da</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % da</i>
Jami	40 154	100,0	27 506	100,0

shu jumladan:

qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	3 411	8,5	2 031	7,4
sanoat	8 355	20,8	5 077	18,5
qurilish	2 640	6,6	1 624	5,9
savdo	13 004	32,4	8 998	32,7
tashish va saqlash	1 368	3,4	967	3,5
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 889	4,7	1 261	4,6
axborot va aloqa	566	1,4	368	1,3
sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	821	2,0	680	2,5
boshqa turlari	8 100	20,2	6 500	23,6


**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da
(2023-yilning 1-iyul holatiga)**




Korxona va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotgan sub'ektlarning ulushi 68,5 % ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 31,5 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda, bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 26,8 foiz oshgan.

**Korxona va tashkilotlarning umumiy sonidan faoliyat
ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**

01.07.2022 yil



01.07.2023 yil




Faoliyatsizlar

Faoliyat ko'rsatayotganlar

2023 yil 1 iyul holatiga 23 216 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 4 134 ta, oilaviy korxonalar – 997 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 17 723 tani va 362 tani boshqa tijorat korxonalari tashkil etadi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar va xo'jalik yurituvchi
sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha
taqsimlanishi, birlikda**


■ 01.07.2022 yil ■ 01.07.2023 yil




2023 yil yanvar-iyun oylarida jami 2 540 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 83,8 foizni tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Namangan shahri (682 ta), Uchqo'rg'on (211 ta), Mingbuloq (196 ta), Pop (194 ta), To'raqo'rg'on (193 ta), Chortoq (190 ta), Kosonsoy (174 ta), Uychi (162 ta), Chust (148 ta), Yangiqo'rg'on (146 ta), tumanlariga to'g'ri keladi. Eng kami esa, Namangan (104 ta) va Norin (140 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va
tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*
(2023- yilning 1- iyul holatiga)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, *birlikda*
(2023- yilning 1- iyul holatiga)



**Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni, birlikda
(2023- yilning 1- iyul holatiga)**

• Sog‘lijni saqlash sohasidagi faoliyat

645



• Yashash uchun joy bilan ta’minglangan holda parvarishlash

18




• Yashash uchun joy bilan ta’minglanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish

17




Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot, birlikda

■ 2022 y. ■ 2023 y.




**Hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan korxona
va tashkilotlarning soni, birlikda
(2023-yilning yanvar-iyun oylarida)**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning ulushi savdoda 38,0 %, sanoatda 20,0 %, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 10,8 %, qurilishda 4,4 % ni tashkil etadi.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi
(2023-yilning yanvar-iyun oylarida)**



2023- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi

52,7 %



Sanoat

6,5 %



*Qishloq, o‘rmon va
baliqchilik
xo‘jaligi*

16,1 %



Savdo

19,4 %




*Yashash va
ovqatlanish bo‘yicha
xizmatlar*

2,1 %



*Sog‘lijni saqlash va
ijtimoiy xizmatlar*



Boshqa turlar

2023 yil 1 iyul holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining soni 23 058 tadan ortiqni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2022 yil mos davriga nisbatan 66,0 % tashkil qilgan. Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining asosiy qismi, ya’ni 7 101 tasi (jami sub’ektlarning 30,8 %) Namangan shahriga, 1 976 tasi (8,6%) Chust, 1 737 tasi (7,5 %) Pop, 1 636 tasi (7,1 %) Uchqo‘rg‘on, 1 400 tasi (6,1 %) Uychi tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Eng kam faoliyat ko‘rsatayotganlar esa

1 088 tasi (4,7 %) Mingbuloq, 1 149 tasi (5,0 %) Norin, 1 159 tasi (5,0 %) Yangiqo‘rg‘on, 1 397 tasi (6,1 %) Kosonsoy tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.


**Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining
hududlar bo‘yicha soni**

	2022- yil 1- iyul holatiga		2023- yil 1- iyul holatiga	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat jami	30 403	100,0	23 058	100,0
Namangan sh.	10 023	33,0	7 101	30,8
Mingbuloq	1 289	4,2	1 088	4,7
Kosonsoy	1 880	6,2	1 397	6,1
Namangan t.	2 050	6,8	1 417	6,1
Norin	1 555	5,1	1 149	5,0
Pop	1 885	6,2	1 737	7,5
To‘raqo‘rg‘on	1 923	6,3	1 591	6,9
Uychi	1 997	6,6	1 400	6,1
Uchqo‘rg‘on	1 891	6,2	1 636	7,1
Chortoq	1 863	6,1	1 407	6,1
Chust	2 494	8,2	1 976	8,6
Yangiqo‘rg‘on	1 553	5,1	1 159	5,0

Faoliyat ko‘rsatayotgan jami 23 058 ta kichik tadbirkorlik subyektlarining 8 967 tasi (38,9 %) - savdoda, 5 028 tasi (21,8 %) - sanoatda, 1 994 tasi (8,6 %) - qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida, 1 613 tasi (7,0 %) - qurilishda, 1 257 tasi (5,5 %) - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida, 962 tasi (4,2 %) - tashish va saqlashda, 574 tasi (2,5 %) - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda, 336 tasi (1,4 %) - axborot va

aloqa sohasida shuningdek, 2 327 tasi (10,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Shundan ko‘rinib turibdiki, faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to‘g‘ri keladi.


**Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da
(2023- yilning 1- iyul holatiga)**



2023- yil yanvar-iyun oylarida jami 2 464 ta kichik tadbirkorlik sub’ektlari yangi tashkil etilgan bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 85,3 foizni tashkil etgan.

Eng ko‘p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Namangan shahri (659 ta), Uchqo‘rg‘on (209 ta), Mingbuloq (192 ta), To‘raqo‘rg‘on (191 ta), Pop (186 ta), Chortoq (181 ta), Kosonsoy (165 ta), Uychi (162 ta) va Chust (141 ta) tumanlariga, eng kam tashkil etilganlari esa, Namangan (101 ta), Norin (138 ta) va Yangiqo‘rg‘on (139 ta) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

**2023- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik
tadbirkorlik subyektlarining hududlar bo'yicha soni, birlikda**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko'p tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar savdoda (965 ta), sanoatda (508 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (273 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (129 ta) hamda qurilishda (112 ta) tashkil etilgan. Eng kami esa, sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (49 ta), axborot va aloqada (60 ta) tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash asosida ularning ishlab chiqarish faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha ishlar yetarli darajada tashkil etilmaganligi sababli, faoliyat ko'rsatmayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining jami ro'yxatga olinganlarning umumiy soniga nisbatan ulushi yuqori bo'lmoqda.

Jumladan, 2023 yilning 1 iyul holatiga Namangan viloyatida jami ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining umumiy sonida faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 34,8 % ni (1 2293 ta) tashkil qilgan, ularning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10 782 taga ko'paygan.


Hisobot davrida 883 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati tugatilgan bo'lib, ularidan 656 tasi (jami faoliyati tugatilganlarning 74,3 %) ixtiyoriy tugatilgan.

**Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da
(2023-yil yanvar-iyun)**



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar. 2023 yil 1 iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 218 tani tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 82 taga yoki 72,7 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 121 tasi qo'shma korxonalar, 97 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma
korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda
(2023-yilning 1-iyul holatiga)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda
(2023 yilning 1 iyul holatiga)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Namangan shahar 98 ta (42,6 %), Pop 29 ta (12,6 %), Kosonsoy 17 ta (7,4), Chust 14 ta (6,1 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida korxonalar Mingbuloq, To'raqo'rg'on 6 tadan (1,6 % dan) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalg etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining hududlar bo'yicha soni va ulushi**

(2023- yilning 1- iyul holatiga)

	birlik	Jamiga nisbatan ulushi % da
Viloyat jami	218	100,0
Namangan sh.	86	39,4
Mingbuloq	5	2,3
Kosonsoy	16	7,3
Namangan t.	10	4,6
Norin	7	3,2
Pop	30	13,8
To'raqo'rg'on	8	3,7
Uychi	12	5,5
Uchqo'rg'on	7	3,2
Chortoq	12	5,5
Chust	18	8,3
Yangiqo'rg'on	7	3,2


Faoliyat ko'rsatayotgan 218 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 98 tasi (44,9 %) sanoat, 98 ta (44,9 %) savdo, 20 ta (9,1 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 12 tasi (5,5 %) qurilish, 6 tasi (2,8 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 6 tasi (2,8 %) sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 6 tasi (2,8 %) tashish va saqlashda hamda 22 tasi (10,1 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa, tashish va saqlash hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi
(2023- yilning 1- iyul holatiga)**

	birlik	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Jami	218	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	20	9,1
sanoat	98	44,9
qurilish	12	5,5
savdo	48	22,0
tashish va saqlash	6	2,8
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	2,8
axborot va aloqa	-	-
sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	6	2,8
boshqa turlari	22	10,1

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy
kapital ishtirokidagi korxonalarining ulushi, % da**



2023- yil yanvar-iyun oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 24 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4 taga yoki 20,0 foizga ko'paygan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi – 11 ta, Rossiya Federatsiyasi – 4 ta, Turkiya – 3 ta, Janubiy Koreya va Tojikiston – 2 tadan, Qozog'iston va Polsha Respublikalari hamda Birlashgan Arab Amirligidan – 1 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.


Viloyatdagi 24 ta yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Namangan shahar (12 ta), Pop (4 ta), Chortoq (3 ta), Kosonsoy, Norin, To'raqo'rg'on, Uychi va Chust (1 tadan) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Mingbuloq, Namangan, Uchqo'rg'on va Yangiqo'rg'on tumanlarida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilmagan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
hududlar kesimidagi soni va ulushi
(2023- yil yanvar-iyun)**


	birlik	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat jami	24	100,0
Namangan sh.	12	50,0
Mingbuloq	-	-
Kosonsoy	1	4,2
Namangan t.	-	-
Norin	1	4,2
Pop	4	16,6
To‘raqo‘rg‘on	1	4,2
Uychi	1	4,2
Uchqo‘rg‘on	-	-
Chortoq	3	12,4
Chust	1	4,2
Yangiqo‘rg‘on	-	-

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan sanoatda 10 ta, savdoda 9 ta, tashish va saqlashda 2 ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, yashash va ovqatlanish va boshqa xizmatlar ko‘rsatishda 1 tadan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha soni, birlikda
(2023- yil yanvar-iyun)**



**2023- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Oilaviy korxonalar. Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni, 2023 yil 1 iyul holatiga 1 453 tani tashkil etib, ulardan 997 tasi yoki 68,6 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan davlat ro'yxatidan o'tganlarning umumiy soniga nisbatan o'rtacha 26,3 % ga oshganligini ta'kidlash mumkin.